



Verbalization of linguoculturems through symbols (based on the symbol "Gold" in English)

Dilnoza NURULLAYEVA¹

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

antropocentric paradigm,
cultural linguistics,
linguocultureme,
symbol,
gold.

ABSTRACT

This article explores the development of cultural linguistics, a field that examines language through the lens of culture, focusing on its primary object of study: the linguocultureme. It emphasizes the verbalization of linguoculturemes through symbols and provides examples of how the English symbol "gold" is represented in language.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp188-193>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Lingvokulturemlarning ramz orqali verballashuvi (ingliz tilidagi "Gold" simvoli asosida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

antroposentrik paradigm,
lingvomadaniyatshunoslik,
lingvokulturema,
ramz,
oltin.

Ushbu maqolada tilga madaniyat prizmasi orqali qarovchi soha – lingvomadaniyatshunoslik fani rivojlanishi yoritilgan bo'lib, uning asosiy o'rganish obyekti lingvokulturema haqida ma'lumot berilgan. Lingvokulturemalar ramzlar orqali verballanishi yoritilgan. Shuningdek, maqolada ingliz tilidagi "gold" simvolining tilda ifodalanishiga misollar keltirilgan.

Вербализация лингвокультурем через символы (на материале символа «Золото» в английском языке)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

антропоцентрическая
парадигма,

В статье рассматривается развитие лингвокультурологии – научной дисциплины, изучающей язык сквозь призму культуры. Особое внимание уделяется

¹ PhD Student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. E-mail: nurullayevad9@gmail.com

лингвокультурология,
лингвокультурема,
символ,
золото.

её основному объекту изучения – лингвокультуреме, которая рассматривается как единица, объединяющая язык и культурные смыслы. В статье выделяется процесс вербализации лингвокультурем посредством символов, а также приводятся примеры языкового выражения английского символа «gold», демонстрирующего культурно значимые ассоциации и образы.

KIRISH

Antroposentrik paradigmaning ilmga kirib kelishi bilan tilshunoslikda ham til hodisasini o'rganishga bo'lgan qarashlar o'zgardi. Endilikda til sistem holatdan o'rganilmasdan, markazida inson omili hodisasi bo'lgan holatdan kelib chiqib o'rganila boshlandi. Buning natijasida tilshunoslikda yangi qarashlar, yangi metodlar orqali yondashuvlar paydo bo'lib, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika, lingvopragmatika, etnolingvistika, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi tilshunoslikning yangi interditsiplinar sohalari vujudga keldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tilshunoslikda xalqlarning madaniy dunyosiga til prizmasi orqali nigoh tashlab til birliklarining madaniy ahamiyatga ega bo'lgan jihatlarini ochib beruvchi, shuningdek, til madaniyatni o'zida aks etuvchi asosiy vosita ekanligini ko'rsatib beruvchi soha bu lingvomadaniyatshunoslikdir. Boshqacha qilib, til va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rganib madaniyatning til orqali aks etishini lingvomadaniyatshunoslik fani o'rganadi. Ushbu soha ilmiy asosini V. Gumbolt, E. Sapir, B. Uvorf, A.A. Potebnyalar o'z ilmiy ishlarida shakllantirgan bo'lsa, keyinchalik, A. Vejbitskaya, N.D. Arutyunova, Yu. Stepanov, N.F. Aliferenko, V.V. Vorobyov, V.N. Teliya, V.A. Maslova kabi olimlar ushbu fanning rivojiga katta hissa qo'shdilar. D.U. Ashurova, M.R. Galiyeva, A.E. Mamatov kabi o'zbek olimlari ham lingvomadaniyatshunoslik fani rivojlanishiga kata hissa qo'shdilar.

V.A. Maslova fikriga ko'ra lingvomadaniyatshunoslikda til madaniyatning fenomenidir. Bu milliy til prizmasi orqali dunyoga nisbatan ma'lum bir qarash bo'lib, unda til milliy mentalitetni ifoda etib beradi [9].

A.E. Mamatov lingvomadaniyatshunoslik – tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutash joyida paydo bo'lgan va xalqning tilda o'z aksini topgan va mustahkamlanib qolgan madaniyati paydo bo'lishini tadqiq qiladigan fan deydi. Olim lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifasi etib quyidagicha belgilaydi: u til ko'zgusida aks etgan va inson tomonidan madaniylashtirilgan sohalar: makon, zamon, faoliyat va hokazolarda qayd qilingan tasavvurlarni hamda til prizmasi orqali namoyon bo'luvchi madaniy arxitiplar bilan o'zaro munosabatda bo'ladigan tasavvurlarni til ma'lumotlari yordamida tilda mustahkamlangan va matnlarda paydo bo'ladigan madaniyatning tayanch oppozitsiyasini aniqlashga jalb qilingan [2].

Lingvomadaniyatshunoslik sohasining asosiy o'rganish obyekti bu linguakulturemadir. Lingvokulturema atamasini fanga birinchi bo'lib V.V. Vorobyov kiritgan bo'lib, ushbu atamaga V.A. Maslova, S.G. Vorkachev, Yu.S. Stepanov, V.I. Karasik kabi olimlar o'z qarashlari va yondashuvlarini ilmiy asarlarida yoritib berishgan. Lingvokulturema bu murakkab birlik bo'lib [4], u lisoniy belgining shakli, mazmuni va shu belgi bilan birga keladigan madaniy ma'noning birikmasidir [10]. Demak, lingvokulturema so'zdan farqli o'laroq o'zida nafaqat semantik ma'no balki madaniy komponentni aks etadi.

V.V.Vorobyov: “Lingvokulturema bosqichlararo kompleks birlik sifatida lingvistik va ekstralingvistik tushunchaga oid yoki predmetga oid mazmunlarning dialektik birligidan iborat”, – deydi (Vorobev 1997:35). Ba’zi olimlar madaniy konseptlarni lingvokulturema deb belgilaydilar (Карасик, 2004, Попова, Стернин, 2007). V.V.Vorobyov lingvokulturemalarni tuzilishiga ko’ra quyidagicha klassifikatsiya qilgan [4]: so’z orqali ifodalanadigan lingvokulturemalar; so’z birikmasi orqali ifodalanadigan lingvokulturemalar; abzats orqali ifodalanadigan lingvokulturemalar; matn orqali ifodalanadigan lingvokulturemalar. D.U. Ashurova va M.R. Galiyeva lingvokulturemalarni tuzilish jihatdan so’z, so’z iborasi, abzats va matn orqali ifodalanishini ta’kidlaydi [5].

Lingvokulturemalar til prizmasi orqali madaniyatni aks etarkan turli vositalar orqali namoyon bo’lishi mumkin. Xususan, olim Maslova V.A. klassifikatsiyasi bo’yicha lingvokulturemalar quyidagi lisoniy birliklar orqali ifodalanadi [9]: ekvivalenti bo’lmagan leksika; mifologemalar (so’zlar, frazeologik birliklar, maqollar va tasvirlar orqali ifodalanadigan miflar, afsonalar va marosimlar); maqol va matallar; simvol (ramz), stereotiplar va etalonlar; tasvirlar; stilistik vositalar; nutq madaniyati; nutq odobi formulalari; diniy xarakterga ega til birliklari. D.U. Ashurova va M.R. Galiyeva lingvokulturemaning asosiy manbaalari etib quyidagilarni ajratadilar: kundalik hayotning realiyalari va fenomenlari; tasvir va qiyoslashlar; miflar; nutq madaniyati; urf-odat va an’analar; din; adabiyot; irim va afsonalar; tarixiy fakt, hodisa va shaxslar. Tasvirlar ko’pgina stilistik qurilmalar orqali yuzaga chiqishi mumkin [5]. Ramz ulardan biridir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ramz tushunchasi fanlararo xususiyatga ega bo’lgan kesishuvchi tushunchadir. Ushbu tushunchani falsafa, semiotika, madaniyatshunoslik, psixologiya, filologiya, adabiyotshunoslik, mifopoetika va boshqa fanlar doirasida o’rganiladi. Xususan: 1) Ramz belgi bilan o’xshash tushuncha (tillarni sun’iy formallashtirish nuqtayi nazarida); 2) Hayotni san’at vositasida obrazli o’rganishning o’ziga xosligini ifodalovchi kategoriya (estetika va san’at falsafasi nuqtayi nazarida); 3) Muayyan madaniy obyekt (madaniyatshunoslik, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlar doirasida); 4) Ramz belgi bo’lib, uning dastlabki ma’nosidan boshqa ma’no uchun shakl sifatida foydalaniladi (falsafa, lingvistika, semiotika va h.k) [9]. Tilshunoslik fani ham ushbu tushunchani chuqur va batafsil tahlil etish zaruriyatini inkor etmaydi. Zero, har qanday til tarixiy-madaniy o’zakka ega. Ushbu o’zak muayyan madaniy mentalitetni aks ettiruvchi tilda namoyon bo’luvchi ramzlarni o’ziga qamrab oladi. Ushbu tushuncha mukammal va interditsiplinar holatga ega bo’lib, lingvistika sohasida F. de Sossyur, E. Sepir, E. Bennivista, A.A. Potebnya, A.N. Veselovskiy, V.V. Vinogradov, Yu.M. Lotman, A.F. Losev, Yu.S. Stepanov, N.D. Arutyunova, V.A. Maslova va boshqa olimlar ishlarida tadqiq qilingan.

Tilshunoslikda ramz tushunchasiga bo’lgan yondashuvlarni ko’rib chiqishni lug’atlarda ushbu tushunchaning yoritilish masalasidan boshlashga qaror qildik. “O’zbek tilining izohli lug’ati”da ramzga quyidagi ta’rif berilgan: Ramz (a) 1. Biror g’oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora; simvol. 2. Qochiriq yoki ishora bilan aytilgan gap; imo-ishora, shama. 3. Ramz (erkaklar ismi). Shuningdek, ramz so’zining uyadoshlar qatoriga kiruvchi ramzli(simvolik) va ramziy (simvolik) so’zlari lug’atga kiritilgan [3].

“Simvol (gr. Symbolon) – 1) qadimgi yunonlarda – muayyan ijtimoiy guruh, sirli jamiyat va hokazolarning a’zolari biluvchi shartli moddiy belgi; 2) muayyan obraz,

tushuncha, g'oyaning shartli belgisi bo'lib xizmat qiladigan predmet, harakat va boshqalar; 3) qandaydir g'oyani in'ikos ettiruvchi badiiy obraz; 4) u yoki bu fan tomonidan qabul qilingan qandaydir kattalikning shartli belgisi; ... 5) e'tiqod jihatidan – e'tiqodning asosiy holatlarining qisqacha bayoni...” [8]; “ramz belgilik aspektida olingan obraz sifatida izohlanadi va u obrazning butun organikligi va tuganmas ko'p ma'noliligi bilan yuklangan belgidir” [12].

Demak, “ramz” so'zining yuqoridagi ta'riflaridan kelib chiqqan holda, ramz birinchi navbatda belgi bo'lib, shuningdek o'zining shartlilik va obrazlilik xususiyatlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Qadim qadimdan qimmatli metallarning ramziy ahamiyati turli madaniyatlarda e'tirof etilganligini ko'rishimiz mumkin. Oltin yoki tilla metali ham shunday ahamiyatga ega bo'lgan razmlardan biridir. Oltinning kimyoviy ramzi Mendeleyev davriy jadvalida Au kimyoviy belgisi bilan qayd etilgan. Au kimyoviy belgisi lotincha “aurum” so'zidan olingan bo'lib, ushbu so'z qadimgi rim mifologiyasidagi tong otishiga sabab bo'luvchi va dunyoga nur olib keluvchi xudo sanalmish Aurora xudosi nomidan kelib chiqqan. Ushbu xudo dunyoga sariq rangli oltin nurlarni tongda osmonda paydo qiladi va dunyoga yorug'lik beradi. Shuning uchun “aurum” – “sariq” degan ma'noni anglatadi va u oltin metalining sariq rangi bilan bog'liqlikni ko'rsatadi. Turli millatlarda oltin so'zi turlicha qayd etilgan, german xalqlari ham ushbu metalni qadimda „gelo” ya'ni „sariq” so'zi bilan atab uning rangi bilan bog'liqlikni o'z tilida aks etishgan. Hozirgi nemis va ingliz tillaridagi “gold” so'zi aynan „gelo”dan kelib chiqqan.

Oltin ming yillardan buyon boylik va kuch-qudrat ramzi bo'lib kelmoqda. Uning uzoq va murakkab tarixi oltinni qadim qadimdan asosiy pul o'lchov birligi qilgan. Uning noyob va nodir metal ekanligi, oltinni topishni qiyinligi va uning juda ham chidamli metal ekanligi bilan bog'liq. Oltin ilk davrlardayoq boylik timsoli va qudrat kafolati bo'lgan. Bu qimmatbaho metall qadimiy tamaddun va madaniyat o'choqlarining yuksalishiga va shu vaqtning o'zida yemirilishiga, butun-butun xalqlarning qirilib ketishi sababchisidir. Mazkur urushlar uchun bahonalar ham qanchalik ming turli bo'lmasin, barchasining asl maqsadi baribir boylik edi. Shuning uchun ko'p oltinga ega bo'lish nafaqat boylik timsoli, balki kuch-qudratning naqadar muhim va obro'li hisoblanishini qayd etkan. Hozirgi kunda jamiyat uchun foydali bo'lgan ulkan yutuqlar, sportdagi eng yuksak natijalar oltin medallar bilan baholanishi sababi ham shudir.

Ko'plab xalqlarda oltin bilan bog'liq tushunchalar bor. Misol uchun, “oltin qo'llar”, “oltin so'zlar”, “qora oltin” kabi tushunchalar mavjud. O'zbeklar esa paxtani “oq oltin” deb ataydi. Oltin nodir qadr-qimmat ramzi sifatida maqol va matallar, ertak va qo'shiqlardan joy olgan. Ingliz tilida gaplashuvchi xalqlar madaniyatida ham bunday tushunchalar tilida aks etadi. **“Gold brick”** ingliz tilining amerikancha variantida uchraydigan bu noformal fraza inson xarakteri bilan bog'liq bo'lib, dangasa, ishdan o'zini kasal deb qochuvchi insonlarga nisbatan ishlatiladi va negativ ma'no uyg'unligini ifoda etadi. **“Gold-digger”** frazasi ham noformal bo'lib, unda ham negativ bo'yodlar aks etadi. Ushbu fraza asosan ayollarga nisbatan qo'llanilishi bilan gender bo'linishga ega bo'lib, o'zining chiroyini ishlatgan holda erkaklardan pul shilib oluvchi ayollarni ta'riflaganda ishlatiladi. **“Golden boy”** frazasi ham gender bo'linishni aks etadi va juda ham yoshligida muvaffaqiyatga erishgan o'g'il bolalarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu fraza pozitiv bo'yoqdorlikka ega[10]. Oltin simvolikasiga ega bo'lgan frazalar nafaqat insonlar xarakteriga balki vaqtni anglatishda ham ishlatiladi. Misol uchun, **“golden hour”** frazasi. Ushbu frazaning kelib

chiqishi tibbiyot bilan bog'liq bo'lib, inson tomonidan qattiq shikast (travma) olganidan keyingi dastlabki birinchi soat ushbu travmani davolashdagi eng muhim soat hisoblanishi bilan bog'liq. Ushbu frazani mo'jizaviy vaqtni ifodalashda ishlatiladi. Shuningdek, **“golden hour”** frazasi fotografiya sohasida ham ishlatilib, quyosh ufqqa yaqinroq bo'lgan paytni ifodalaydi va suratga olish uchun eng zo'r vaqt hisoblanadi. Yana bir vaqt bilan bog'liq fraza bu **“golden age”** bo'lib, u hamma baxtli bo'lgan paytni yoki biror san'at, madaniyat va biznes o'z muvaffaqiyatining cho'qqisida bo'lgan davrni anglatadi. **“Golden jubilee”** frazasi ham vaqt bilan bog'liq pozitiv bo'yoqqa ega bo'lib, inson hayotining 50 yillik umrini yoki bo'lmasa biror bir hodisaning 50 yillik yubileyini nishonlashni bildiradi. Ish va mablag' bilan bog'liq frazalarda borki, ulardan biri **“golden hello”** bo'lib, biror kishi qandaydir ishni qabul qilishi uchun beriladigan mablag'ga nisbatan ishlatiladi. Ikkinchisi **“golden handcuffs”** frazasi bo'lib, biror kishi qandaydir ishni tark etishi uchun beriladigan mablag'ni ifodalaydi. Yana bir fraza **“golden parachute”** bo'lib, u ish kontraktida qayd etilgan biror biznesmenga ishini tark etishga to'g'ri kelganda beriladigan katta mablag'ga nisbatan aytiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Til madaniyatning fenomeni. Tilga bo'lgan antroposentrik yondashuv bir qator yangi fanlarning vujudga kelishiga omil yaratdi. Lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rganib, tilni madaniyat prizmasi orqali tadqiq etadi. Lingvomadaniyatshunoslik sohasining asosiy o'rganish obyekti bu lingvokulturema bo'lib, uni V.V. Vorobyov, V.A. Maslova, V.S. Gorkachev, Yu.S. Stepanov, V.I. Karasik, D.U. Ashurova, M.R. Galiyeva kabi olimlar tadqiq etishgan. Lingvokulteremalar ko'plab lisoniy birliklar va stilistik qurilmalar orqali yuzaga chiqishi mumkin. Ulardan biri ramzdir. Oltin bu boylik va kuch-qudrat ramzi bo'lib necha asrlardan beri xalqlar madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ingliz tilida ham ushbu ramz orqali ifodalangan frazalarda inson xarakterini ochib beruvchi, vaqt bilan bog'liqlik, ish va mablag' bilan bog'liqlik aks etkanligini tadqiq qildik. Tadqiqotlarimiz davomida, yuqoridagi frazalarda positive va negative bo'yoqdorlik va gender bo'linish kabi xususiyatlar borligini topdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashurova D.U, Galieva D.U. Cultural linguistics – Tashkent: Vneshinvestprom, 2019, p. 92;98.
2. Mamatov. A.E. Zamonaviy lingvistika – Toshkent, „Noshir“, 2019, 40-bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati: ikki tomli, 60 000 so'z va birikmasi/ S.F.Akobirov, T.A.Aliqulov, S.I.Ibrohimov va b.; Z.M.Ma'rufov tahriri ostida. – T. I-II –M.: Русский язык, 1981, 613-bet.
4. В. В. Воробьев Лингвокультурология: Монография – М: Изд-во РУДН, 2006, стр. 44-45; 53-56.
5. Джусупов. Н.М. Тюркский символ в художественном тексте (лингвокогнитивный аспект). Монография. Астана-2011.
6. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.
7. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка-М. Высшая школа, 1996, стр. 126.
8. Литературный энциклопедический словарь / Под. общ. ред. В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. – М.: Сов. энциклопедия, 1987, стр. 378.

9. Маслова В. А. Лингвокультурология – Москва, 2001, с. 5.
10. Международный журнал экспериментального образования. – 2014. – № 5 (часть 1), стр. 144-146 .
11. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. – 314 с.
12. Словарь иностранных слов. – М.: Рус. яз., 1989, стр. 464.
13. <https://dictionary.cambridge.org/>
14. <https://www.merriam-webster.com/>